XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHI
QARORI

Bag‘dod tumani 20733571, Mustaqillik ko‘chasi, 15-uy. Tel:(73) 479-27-66

2024 - yil 3 - fevral VI-62-14-11-152-K/24 Bag‘dod tumani hokimligi

Bag‘dod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda Bandlik dasturini tasdiqlash to‘g‘risida

Bag‘dod tumanida aholi soni 231,6 ming nafarni tashkil qilib, shundan erkaklar 115 493 nafarni, ayollar 116 192 nafarni tashkil etadi. Tumanda mehnatga layoqatli aholi soni 114,1 ming nafar, iqtisodiy faol aholi soni 91,4 ming, band aholi soni 82,7 ming kishi, shundan rasmiy sektorda bandlar 26,2 ming kishi, norasmiy sektorida bandlar 46,7 ming nafar, xorijga ishlash uchun ketganlar soni 9,7 ming nafarni tashkil etmoqda.

Hozirgi kunda xorijga ishlash uchun ketgan fuqaroalar soni 5,2 ming nafarni tashkil qilib, shundan Rossiya davlatida 2 063 nafar, Qozog‘iston davlatida 1 685 nafar, Turkiya davlatida 103 nafar, Janubiy Koreya davlatida 24 nafar hamda boshqa davlatlarga 1 302 nafarga to‘g‘ri kelmoqda.

Tumanda ishsizlar soni 8,6 ming, ishsizlik darajasi 8,9 foizni, shundan ayollar 4,8 foizni, yoshlar 4,1 foizni tashkil etadi.

2024-yilda 4939 nafar mehnat bozoriga bitiruvchilar kirib kelishi kutilmoqda (shundan, umumta’lim muassasalarida 3109 nafar, kasb-hunar texnikumlarida 1018 nafar, oliy ta’lim bitiruvchilarida 812 nafar).

2024-yil davomida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari rejasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli qarorida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, Bag‘dod tumanida 2024-yil uchun aholini daromad keltiradigan

mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirilib, shunga ko‘ra tuman bo‘yicha 23 149 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

Xususan,

Bag‘dod tumanida 2024-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari hisobiga 23149 nafar;

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari hisobiga 648 nafar;

Bag‘dod tumanda 2024-yilda aholini Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari 13 585 nafar;

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlari hisobiga 8 232 nafar;

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlari hisobiga 684 nafar.

Bag‘dod tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i G‘.Eshonxonovning Bag‘dod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda Bandlik dasturi bo‘yicha bergan hisoboti hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Bag‘dod tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i G‘.Eshonxonovning Bag‘dod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda Bandlik dasturi bo‘yicha bergan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bag‘dod tumanida 2024-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti

yig‘masi *1-ilovaga* muvofiq;

3. Bag‘dod tumanida 2024-yilda investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi *2-ilovaga* muvofiq;

4. Bag‘dod tumanida 2024-yilda moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi *3-ilovaga* muvofiq;

5. Bag‘dod tumanda 2024-yilda aholini qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi *4-ilovaga* muvofiq;

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi *5-ilova*ga muvofiq tasdiqlansin.

7. Bag‘dod tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Davlatov) hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (G‘.Eshonxonov)ga;

- Dasturda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish;

- Mavjud ish o‘rinlari bo‘yicha aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat yarmarkalarini tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko‘rib borish;

- Kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko‘proq jalb qilish hamda mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tishini doimiy nazorat qilib borish;

- Mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlari sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbir ishlab chiqish;

- Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha xalq deputatlari

tuman Kengashiga axborot kiritish kabi vazifalar yuklatilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmatiga;

- Tasdiqlangan Dastur bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ijtimoiy tarmoqlarda hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida keng yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

9. Mazkur qarorni nazorat xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Y.A.Xusainov**

Xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashining
2024-yil 3-fevraldagi
VI-62-14-11-152-K/24-son qaroriga
1-ilova

Bag‘dod tumanida 2024-yil uchun aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi

T/r	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*Shundan*		
					yanvar	Fevral	mart		Aprel	may	Iyun		Iyul	avgust	sentabr		Oktabr	Noyabr	Dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1.	Bag‘dod tumani	**JAMI**	**23149**	**1950**	**544**	**478**	**928**	**10923**	**3978**	**3917**	**3028**	**7544**	**3096**	**2758**	**1690**	**2732**	**1079**	**935**	**718**
		doimiy	**8389**	**1 403**	*376*	*307*	*720*	**2 718**	*879*	*906*	*933*	***2 607***	*870*	*869*	*868*	**1 661**	*651*	*592*	*418*
		vaqtinchalik	**3140**	**547**	*168*	*171*	*208*	**922**	*299*	*310*	*313*	***1 013***	*336*	*344*	*333*	**658**	*222*	*219*	*217*
		mavsumiy	**11620**	**0**	*0*	*0*	*0*	**7 283**	*2 800*	*2 701*	*1 782*	***3 924***	*1 890*	*1 545*	*489*	**413**	*206*	*124*	*83*

Xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashining
2024-yil 3-fevraldagi
VI-62-14-11-152-K/24-son qaroriga
2-ilova

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					Yanvar	Fevral	mart		Aprel	may	Iyun		Iyul	avgust	Sentyabr		Oktyabr	noyabr	dekabr
A	**B**	**V**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**
1.	Bag‘dod tumani	*doimiy*	**648**	**68**	16	20	32	**173**	50	57	66	**217**	76	73	68	**190**	62	62	66

Xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashining
2024-yil 3-fevraldagi
VI-62-14-11-152-K/24-son qaroriga
3-ilova

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*														
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentabr		Oktabr	Noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1.	Bag‘dod tumani	**JAMI**	**8232**	**1340**	**453**	**233**	**654**	**2712**	**892**	**910**	**910**	**2592**	**864**	**864**	**864**	**1588**	**597**	**547**	**444**
		doimiy	***5467***	***900***	*315*	*100*	*485*	***1 887***	*617*	*635*	*635*	***1 677***	*559*	*559*	*559*	***1 003***	402	352	249
		vaqtinchalik	***2765***	***440***	*138*	*133*	*169*	***825***	*275*	*275*	*275*	***915***	*305*	*305*	*305*	***585***	195	195	195

Xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashining
2024-yil 3-fevraldagi
VI-62-14-11-152-K/24-son qaroriga
4-ilova

Bag‘dod tumanda 2024-yilda aholini Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan yangi ish o‘rinlari yo`nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	Fevral	mart		Aprel	may	Iyun		iyul	avgust	sentabr		Oktabr	Noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1.	Bag‘dod tumani	**JAMI**	**13585**	**380**	**40**	**162**	**178**	**7848**	**2981**	**2884**	**1983**	**4540**	**2094**	**1749**	**697**	**817**	**360**	**274**	**183**
		doimiy	***1965***	***380***	*40*	162	178	***565***	181	183	201	***616***	204	204	208	***404***	154	150	100
		mavsumiy	***11620***	***0***				***7 283***	2800	2701	1782	***3 924***	1890	1545	489	***413***	206	124	83

Xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashining
2024-yil 3-fevraldagi
VI-62-14-11-152-K/24-son qaroriga
5-ilova

Bag‘dod tumanida 2024-yilda Qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko‘rsatkichlarining oyma-oy taqsimoti yig‘masi

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					Yanvar	Fevral	mart		Aprel	may	Iyun		Iyul	avgust	sentabr		oktyabr	noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1.	Bag‘dod tumani	**JAMI**	**684**	**162**	**35**	**63**	**64**	**190**	**55**	**66**	**69**	**195**	**62**	**72**	**61**	**137**	**60**	**52**	**25**
		doimiy	**309**	***55***	*5*	*25*	*25*	***93***	*31*	*31*	*31*	***97***	*31*	*33*	*33*	***64***	33	28	3
		vaqtinchalik	**375**	***107***	*30*	*38*	*39*	***97***	*24*	*35*	*38*	***98***	*31*	*39*	*28*	***73***	27	24	22